



Farg'ona shahar 32-umumiy o'rta ta'lim maktabining 11"A"-sinf o'quvchisi Mahmudova Jasmina Roziqjon qizi hamda O'zbekiston Respublikasi "Vatan tayanchi" otryadi terma jamoasining erishgan g'alabalari bilan tabriklaymiz.

Eslatib o'tamiz, "Aybin - 2024" harbiy-vatanparvarlik yig'inida ishtirok etgan "Vatan tayanchi" jamoasi Rossiya, Ozarboyjon, Qirg'iz, Belarus Respublikalari hamda mezbon davlatning 42 ta jamoalari bilan munosib bellashib, faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Farg'ona shahrining farzandi, 2006 yilda tug'ilgan Mahmudova Jasmina Roziqjon qizi bo'lib o'tgan yig'inda muvaffaqiyatli ishtirok etgan "Vatan tayanchi" jamoasi a'zosi sifatida murosasiz baxslarda mardonavor ishtirok etdi.

- Bolalikdan harbiylik kasbiga qizib kelaman. Kelajakda Vatan sha'nini munosib himoya qilish, xalqimga va Prezidentimga sadoqat bilan xizmat qilish bolalik orzuim, - deydi Jasmina Mahmudova.

- Siz kabi Vatanparvar, yurt ishqida yonuvchi sodiq farzandlarimiz - Vatanimiz ertasi, kelajagimiz poydevoridir. Fursatdan foydalanib, Sizdek yetuk farzand tarbiyalagan ota-onangizga va ustozlaringizga samimiy minnatdorchiligimni bildiraman.

Muvvafaqiyatlaringiz bardavom bo'lsin!

Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati:

Fargona.uz|Telegram (<https://t.me/fargonauzpress>)|Facebook (<https://www.facebook.com/FargonaShaharHokimligi>)|Instagram (https://www.instagram.com/invites/contact/?i=tdcj6pr3s6us&utm_content=b15bx0f)|YouTube (<https://www.youtube.com/channel/UCWcY6II91iqBL6mYfARYHZQ>)|

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#)

2024-06-24 13:24:56